



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI ANDIJON VILOYATI STATISTIKA
BOSHQARMASI

Andijon viloyatida
kichik tadbirkorlik

2023-yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar



Andijon viloyatida kichik tadbirkorlik

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar


2024-yilning 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni **31,9** mingtani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **7,1** mingtaga kamaygan yoki **18,2 %** ga pasaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **9,5** birlikni tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar


2023-yilning yanvar-dekabrida **4,2** mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **22,2 %** ga kam demakdir.

Yuridik shaxs – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

2020-2024-yillar 1-yanvar holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), ming birlikda



2024-yilning 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan sohalar bo'yicha soni va ulushi



Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar


Hududlar bo'yicha 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

2022-y.		2023-y.
39 038	Andijon viloyati	24 381
11 865	Andijon sh.	6 568
3 718	Asaka	2 114
2 877	Andijon	2 036
2 619	Shahrixon	1 697
2 227	Baliqchi	1 338
1 852	Oltinko'l	1 238
1 693	Marhamat	1 197
1 691	Xo'jaobod	1 186
1 905	Izboskan	1 183
1 479	Jalaquduq	1 111
1 864	Qo'rg'ontepa	1 099
1 598	Paxtaobod	1 032
995	Bo'ston	833
1 137	Buloqboshi	721
722	Ulug'nor	590
796	Xonobod sh.	438

2024-yil 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni jami **24 381** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **4 185** tani tashkil etdi.

2023-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Andijon shahrida **6 568** tani yoki jamiga nisbatan **26,9 %** ni tashkil etdi.

1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda





Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda)*

Ulug'nor	21,2
Xo'jaobod	14,4
Bo'ston.	14,4
Andijon sh	13,9
Xonobod sh.	9,8
Jalaquduq	9,7
Andijon	9,3
Marhamat	9,3
Baliqchi	9,1
Qo'rg'ontepa	8,6
Paxtaobod	8,3
Oltinko'l	7,8
Asaka	7,4
Buloqboshi	6,9
Shahrixon	6,6
Izboskan	6,5

Andijon viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati 1-yanvar holatiga, birlikda



2023-yil 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har **1000** aholiga nisbatan **9,5** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2022-yilga nisbatan **2,2** birlikka kamaygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har **1000** aholiga nisbati eng yuqori ko'rsatkich Ulug'nor tumanida **21,2** birlik, Xo'jaobod tumanida **14,4** birlik, Bo'ston tumanida **14,4** birlik, Andijon shaharida **13,9** birlik va Xonobod shahrida **9,8** birlikka yetdi.


* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Andijon viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda

Eng yuqori ko'rsatkich

Ulug'nor tumani
– 21,2 birlik.




O'rta ko'rsatkich

Xonobod shahri
– 9,8 birlik.



Eng past ko'rsatkich

Izboskan tumani
– 6,5 birlik.



Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Ulug'nor tumanida 21,2 birlik, Xo'jaobod tumanida 14,4 birlik, Bo'ston tumanida 14,4 birlik, Andijon shaharida 13,9 birlik, Xonobod shahrida 9,8 birlik, Jalaquduq tumanida 9,7 birlik, Andijon tumanida 9,3 birlik, Marhamat tumanida 9,3 birlik, Baliqchi tumanida 9,1 birlik kuzatildi.

Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

2023-yil 1-oktabr holatiga har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlarini ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda

Xonobod shahri

9,8

Bo'ston tumani

14,4

Ulug'nor tumani

21,2

Andijon shahri

13,9

Xo'jaobod tumani

14,4

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

2022-y.

2023-y.

1 033	Andijon sh.	966
517	Andijon	419
437	Asaka	326
416	Shahrixon	250
256	Marhamat	243
584	Baliqchi	241
303	Q'rg'ontepa	228
286	Izboskan	226
260	Oltinko'l	224
168	Bo'ston	201
300	Xo'jaobod	192
304	Paxtaobod	188
205	Jalaquduq	174
165	Buloqboshi	133
102	Ulug'nor	130
70	Xonobod sh.	44

2023-yilning yanvar-dekabrida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da

Andijon sh.	23,1
Andijon	10,0
Asaka	7,8
Shahrixon	6,0
Marhamat	5,8
Baliqchi	5,8
Qo'rg'ontepa	5,4
Izboskan	5,4
Oltinko'l	5,4
Bo'ston	4,8
Xo'jaobod	4,6
Paxtaobod	4,5
Jalaquduq	4,2
Buloqboshi	3,2
Ulug'nor	3,1
Xonobod sh.	1,1

2023-yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Andijon shahri (23,1 %), Andijon tumani (10,0 %), Asaka tumani (7,8 %), Shahrixon tumani (6,0 %), Marhamat tuman (5,8 %), Baliqchi tumani (5,8 %) hamda Qo'rg'ontepa tumani (5,4 %) hissalariga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2022-2023-yillarning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda



Qishloq, o'rmon va
baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish
bo'yicha xizmatlar



Axborot va aloqa




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy
xizmatlar ko'rsatish



Boshqa xizmatlar

■ 2022-y. ■ 2023-y.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda




■ 2022-y. ■ 2023-y.

2023-yilning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdo sohasida (1 792 ta), sanoatda (860 ta) hamda boshqa xizmatlar sohasida (330 ta) yangidan tashkil etilgan.


Viloyatimizning tumanlari va shaharlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar Andijon shahrida (966 ta), Andijon tumanida (419 ta) hamda Asaka tumanida (326 ta) yangidan tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlik



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2019-2023-yillarning yanvar-dekabri davomida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlik



So'ngi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2019-2023-yillarning yanvar-dekabr oylari davomida jami **31 018** ta kichik korxona va mikrofirma yangitdan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida – **11 732** (yoki **37,8 %**) ta, sanoat sohasida – **8 217** (yoki **26,5 %**) ta, xizmat sohasida – **5 608** (yoki **18,1 %**) ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **3 435** (yoki **11,1 %**) ta va qurilish sohasida – **2 026** (yoki **6,5 %**) tani tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da




Sanoat



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Investitsiya



Qurilish



Chakana savdo



Xizmatlar



Yuk tashish



Yuk aylanmasi



Yo'lovchi tashish



Yo'lovchi aylanmasi




Eksport



Import


■ 2022-y. ■ 2023-y.




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi (yanvar-dekabr oylarida), % da

2023-yilning yanvar-dekabrida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **66,0** % ni tashkil qilib, 2022-yilning tegishli davriga nisbatan **1,1** % ga kamaygan.




2023-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlari, % da




2023-yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari yo'lovchi tashish **98,0** % ni, yo'lovchi aylanmasida **97,4** % ni, qishloq xo'jaligi **96,1** % ni, qurulish **96,0** % ni, chakana savdo **93,8** % ni, yuk aylanmasida **74,6** % ni tashkil etdi.

Tarmoqlarning YAHMdagi ulushi, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-dekabr oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-dekabr oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatishdagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2023-yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm

Andijon sh	2 943,9
Xo'jaobod	2 024,8
Baliqchi	1 499,2
Qo'rg'ontepa	1 331,1
Izboskan	1 302,7
Andijon	1 273,2
Shahrixon	1 156,0
Xonobod sh	1 021,6
Jalaquduq	827,8
Asaka	625,6
Oltinko'l	528,4
Buloqboshi	436,8
Ulug'nor	369,4
Paxtaobod	337,1
Bo'ston	287,9
Marhamat	246,0

2023-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **16 211,5** mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Andijon shahri (**2 943,9** mlrd. so'm), Xo'jaobod (**2 024,8** mlrd. so'm), Baliqchi (**1 499,2** mlrd. so'm), Qo'rg'ontepa (**1 331,1** mlrd. so'm), Izboskan (**1 302,7** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Marhamat tumanida (**246,0** mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2018-2023-yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi dinamikasi, trln. so'm

2023-yil yanvar-dekabrida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **22,0 %** ni tashkil etdi.




2023-yilning yanvar-dekabrida hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Bulqoboshi (100,0 %), Izboskan (100,0 %), Andijon (82,5 %), Shahrison (81,2 %), Baliqchi (71,4 %), Xo'jaobod (69,2 %), Ulug'nor (68,6 %), Bo'ston (56,1 %), Jalaquduq (53,8%) hamda Qo'rg'ontepa (48,8 %) tumanlari tashkil etdi.

Bulqoboshi	100,0
Izboskan	100,0
Andijon	86,5
Shahrison	82,2
Baliqchi	68,7
Xo'jaobod	65,9
Ulug'nor	64,2
Bo'ston	62,6
Jalaquduq	57,0
Qo'rg'ontepa	48,8
Oltinko'l	42,7
Paxtaobod	35,1
Xonobod sh	34,7
Marhamat	33,7
Andijon sh	28,9
Asaka	1,5

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2018-2023-yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi



2023-yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi

Xonobod sh.	177,2	82,8
Andijon sh.	2 269,8	90,6
Jalaquduq	208,8	91,2
Ulug'nor	131,2	93,3
Xo'jaobod	314,8	100,0
Paxtaobod	380,7	100,0
Shahrixon	511,4	100,0
Marhamat	304,8	100,0
Asaka	267,3	100,0
Qo'rg'ontepa	321,7	100,0
Izboskan	192,4	100,0
Buloqboshi	165,9	100,0
Bo'ston	292,7	100,0
Baliqchi	245,0	100,0
Andijon	915,3	100,0
Oltinko'l	444,9	100,0

hajmi, mlrd. so'mda


ulushi, % da

2023-yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **7 143,9** mlrd. so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **96,0** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **105,5** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Andijon shahri (**2 269,8** mlrd. so'm), Andijon (**915,3** mlrd. so'm), Shahrixon (**511,4** mlrd. so'm), Oltinko'l (**444,9** mlrd. so'm), Paxtaobod (**380,7** mlrd. so'm), Qo'rg'ontepa (**321,7** mlrd. so'm) hamda Xo'jaobod (**314,8** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2018-2023-yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda




2023-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **13 087,8** mlrd. so'mni yoki jami investitsiya hajmining **72,0 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022-yilning mos davriga nisbatan **143,9 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Buloqbohi tumani (**6 010,1** mlrd. so'm), Andijon shahri (**1 354,7** mlrd. so'm), Xo'jaobod tuman (**860,4** mlrd. so'm), Andijon tuman (**710,2** mlrd. so'm), Baliqchi tuman (**603,0** mlrd. so'm), Jalaquduq (**589,3** mlrd. so'm), Oltinko'l tuman (**577,0** mlrd. so'm) hamda Paxtaobod tumanida (**475,1** mlrd. so'm) qayd etildi.

2018-2023-yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da



2023-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi




■ hajmi, mlrd. so'm ■ ulushi, %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi faoliyati

2023-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **37 300,2** mlrd. so'mni yoki jami qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmining **96,1** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022-yilning tegishli davriga nisbatan **104,0** % ni tashkil qildi.

2018-2023- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari qishloq xo'jaligi hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi Jalaquduq (3 570,7 mlrd. so'm), Asaka (3 509,5 mlrd. so'm), Shahrison (3 399,6 mlrd. so'm), Paxtaobod (3 498,6 mlrd. so'm), Baliqchi (2 718,8 mlrd. so'm) hamda Marhamat (3 017,1 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2023-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi

Xonobod sh.	203,8	99,7
Baliqchi	2 718,8	99,4
Bo'ston	2 176,8	98,3
Andijon	2 126,4	99,1
Buloqboshi	2 018,8	98,8
Oltinko'l	2 187,1	98,5
Shaxrixon	3 399,6	98,1
Jalaquduq	3 570,7	98,6
Izboskan	1 921,8	95,5
Paxtaobod	3 498,6	98,1
Xo'jaobod	1 770,3	89,4
Asaka	3 509,5	95,4
Qo'rg'ontepa	2 512,5	92,3
Ulug'nor	1704,2	92,7
Marhamat	3 017,1	93,8
Andijon sh.	964,0	85,0

hajmi, mlrd. so'mda


ulushi, % da

2018-2023-yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligidagi ulushi dinamikasi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2018-2023-yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi



2023-yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **21 235,6** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **93,8** % ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022-yilning tegishli davriga nisbatan **107,7** % ni tashkil qildi.

2023-yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi

Xonobod sh.	222,5	94,5
Ulug'nor	304,2	99,2
Bo'ston	309,5	93,9
Jalaquduq	691,7	94,1
Buloqboshi	695,7	98,7
Izboskan	768,0	98,0
Xo'jaobod	839,6	97,7
Oltinko'l	873,0	94,5
Marhamat	1 000,4	98,2
Paxtaobod	1 003,3	97,6
Andijon	1 338,4	92,8
Baliqchi	1 413,1	96,9
Qo'rg'ontepa	1 543,4	99,2
Asaka	1 918,1	97,0
Shahrixon	2 944,9	99,0
Andijon sh.	5 369,8	85,2

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Andijon shahri (**5 369,8** mlrd. so'm), Shahrixon (**2 944,9** mlrd. so'm), Asaka (**1 918,1** mlrd. so'm), Qo'rg'ontepa (**1 543,4** mln. so'm), Baliqchi (**1 413,1** mln. so'm), Andijon (**1 338,4** mln. so'm) va Paxtaobod (**1 003,3** mln. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

2018 va 2023-yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarishi, trln. so'm




hajmi, mlrd. so'mda

ulushi, % da

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2018-2023-yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2023-yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatish hajmi, mlrd. so'mda

Andijon sh.	5 202,0
Asaka	1 038,9
Andijon	958,6
Baliqchi	809,8
Xo'jaobod	798,4
Izboskan	692,3
Shahrixon	665,7
Jalaquduq	659,8
Oltinko'l	641,6
Marhamat	612,4
Qo'rg'ontepa	561,6
Paxtobod	447,7
Buloqboshi	401,9
Xonobod sh.	349,3
Bo'ston	209,0
Ulug'nor	177,9

2023-yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **14 227,0** mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **65,3 %** ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2022-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **108,0 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Andijon shahri (**5 202,0** mlrd. so'm), Asaka (**1 038,9** mlrd. so'm), Andijon (**958,6** mlrd. so'm), Baliqchi (**809,8** mlrd. so'm), Xo'jaobod (**798,4** mlrd. so'm), Izboskan (**692,3** mlrd. so'm) va Shahrixon (**665,7** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan turlari
(yanvar-dekabr oylarida)

6 189,4	Savdo xizmatlari	43,5
4 261,7	Transport xizmatlari	30,0
1 021,9	Shaxsiy xizmatlar	7,2
479,6	Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	3,4
478,0	Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	3,4
452,1	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	3,2
406,3	Ijara xizmatlari	2,9
279,1	Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	2,0
274,2	Boshqa xizmatlar	1,9
145,0	Ta'lim sohasidagi xizmatlar	1,0
116,1	Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	0,8
73,3	Moliyaviy xizmatlar	0,5
50,4	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	0,4

Hajmi, mlrd. so'mda

Ulushi, foizda


Yuqoridagi diagramma ma'lumotlariga ko'ra, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushi savdo xizmatlarida – **43,5 %** (**6 189,4** mlrd. so'm), transport xizmatlarida – **30,0 %** (**4 261,7** mlrd. so'm), shaxsiy xizmatlarda – **7,2 %** (**1 021,9** mlrd. so'm) hamda kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarida **3,4 %** (**479,6** mlrd. so'm)ni tashkil etdi.

Kichik biznes subyektlarining xizmatlar sohasida eng kichik ulushi aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida **0,4 %** (**50,4** mlrd. so'm) kuzatildi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-dekabr oylarida)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

Hajmi, mln. AQSh doll.




Ulushi, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

Hajmi, mln. AQSh doll.




Ulushi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2018-2023-yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2023-yilning yanvar-dekabrida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **340,8** mln. AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining **29,4** % ini tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi

Baliqchi	7,6	18,6
Marhamat	11,0	72,7
Qo'rg'ontepa	11,3	53,1
Oltinko'l	12,3	22,3
Paxtaobod	13,2	73,5
Buloqboshi	14,2	100,0
Xonobod sh.	14,3	66,7
Bo'ston	16,1	60,0
Izboskan	16,1	99,9
Ulug'nor	18,0	82,7
Asaka	22,9	4,0
Jalaquduq	23,3	45,5
Shahrixon	24,1	65,4
Xo'jaobod	32,7	40,4
Andijon	36,2	80,8
Andijon sh.	66,6	57,8


hajmi, mln. AQSh dollar

ulushi, % da

2023-yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Buloqboshi tumanida – **100,0** %, Izboskan tumanida – **99,9** %, Ulug'nor tumanida – **82,7** %, Andijon tumanida – **80,8** %, Paxtaobod tumanida – **73,5** %, Marhamat tumanida – **72,7** %, Xonobod shahrida – **66,7** % va Shahrixon tumanida – **65,4** % ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich Asaka tumanida – **4,0** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2018-2023-yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, % da




2023-yilning yanvar-dekabrida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **618,6** mln. AQSh dollarini yoki jami importning **16,0** % ini tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da

2023- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Buloqboshi tumanida – **100,0** %, Izboskan tumanida – **100,0** %, Ulug'nor tumanida – **99,4** %, Shahrixon tumanida – **99,1** %, Jalaquduq tumanida – **98,4** %, Bo'ston tumanida – **90,4** %, hamda Paxtaobod tumanida **78,2** % ni tashkil etdi.


Buloqboshi	100,0
Izboskan	100,0
Ulug'nor	99,4
Shahrixon	99,1
Jalaquduq	98,4
Bo'ston	90,4
Paxtaobod	78,2
Baliqchi	76,8
Xo'jaobod	75,8
Andijon	68,6
Qo'rg'ontepa	51,2
Oltinko'l	50,4
Andijon sh.	35,9
Marhamat	9,7
Xonobod sh.	8,7
Asaka	0,6

Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati




**Yuk
tashishda**

2023-yilning yanvar-dekabrida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **95,2 %** ni tashkil etdi. 2022-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **103,4 %** ni tashkil qildi.




**Yuk
aylanmasida**

2023-yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **74,6 %** ni tashkil etgan bo'lib, 2022-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **105,8 %** ni tashkil qildi.



**Yo'lovchi
tashishda**

2023-yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **98,0 %** ni tashkil etib, 2022-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,3 %** ni tashkil qildi.




**Yo'lovchi
aylanmasida**

2023-yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **97,4 %** ni tashkil etib, 2022-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **104,2 %** ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023-yil IV chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, ming birlikda




2023-yil **IV chorak** yakunlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnomada **1 081** ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **344 (31,0 %)**tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **679 (61,1 %)**ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **90 (7,9 %)**ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – **39,6 % (428 ta)**, xizmatlar sohasida – **27,6 % (298 ta)**, sanoatda – **20,8 % (225 ta)**, qurilishda – **7,2 % (78 ta)**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **4,8 % (52 ta)**ni tashkil etdi.

2023-yil IV chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023-yil IV chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

298	Andijon sh.	27,6
84	Andijon	7,8
83	Asaka	7,7
60	Baliqchi	5,6
34	Bo'ston	3,1
28	Buloqboshi	2,6
49	Izboskan	4,5
49	Jalaquduq	4,5
56	Marhamat	5,2
56	Oltiko'l	5,2
51	Paxtaobod	4,7
50	Qo'g'ontepa	4,6
33	Ulug'nor	3,1
43	Xo'jaobod	4,0
22	Xonobod sh.	2,0
85	Shahrixon	7,8


Respondentlar soni

Ulushi, foizda

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Andijon shahri (**263** ta), Shahrixon (**85** ta), Asaka (**84** ta), Andijon (**83** ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023-yillarning IV choragi uchun umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi (joriy davrga nisbatan), birlik




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalarning soni 2018-yilning IV choragida **982** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilning IV choragiga kelib esa **1 081** taga yetgan yoki 2018-yilning IV choragiga nisbatan **99** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning soni 2018-yilda **547** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilning yanvar-dekabrida **648** ta yoki **101** taga oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2018-yilda **61** tani tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib **77** tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2018-yilga nisbatan **16** taga oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023-yillarning IV choragida umumiy iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalarning soni 2018-yilning IV choragida 365 tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilning IV choragiga kelib esa 393 taga yetgan yoki 2018-yilga nisbatan 28 taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarning soni 2018-yilning IV choragida 552 ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilning IV choragida 543 ta yoki 8 taga kamaygan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarning soni esa 2018-yilning IV choragida 65 tani tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning IV choragiga kelib, bu ko'rsatkich 67 tani tashkil etib, 2 taga oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023-yillarning IV choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha), % da




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2018-yilning IV choragida **36,4** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilga kelib esa **33,0** % ga yetgan yoki 2018-yilga nisbatan **3,4** % birlik kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2018-yilda **57,3** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilning IV choragida **59,9** % yoki **2,6** % birlikka oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2018-yilda **6,3** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib, bu ko'rsatkich **7,1** % ga yetgan yoki **0,8** % ga ko'paygan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023-yillar IV choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o'tgan yillarning mos davriga nisbatan), % da




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2018-yilning IV choragida **37,7 %** ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilga kelib esa **39,2 %** ga yetgan yoki 2018-yilning **IV** choragiga nisatan **1,5 %** birlikka oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarning ulushi 2018-yilning IV choragida **56,6 %** bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilning yanvar-dekabrida **54,1 %** yoki **2,5 %** birlikka kamaygan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2018-yilning IV choragida **5,7 %** ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning IV choragiga kelib, bu ko'rsatkich **6,7 %** yoki **1,0 %** birlikka oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023-yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2023-yilning **IV** choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – **36,9** % ni, Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **32,7** % ni, sanoatda – **31,1** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – **64,5** % ni, sanoatda – **61,8** % ni, qurilishda – **61,5** % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **11,5** % ni, qurilishda – **10,3** % ni, savdoda – **7,2** % ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023-yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



■ Qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ■ Sanoat ■ Qurilish ■ Savdo ■ Xizmat

2023-yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdo – **47,0** % ni, xizmatlar sohasida – **47,0** % ni, va sanoatda – **44,4** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **59,6** % ni, qurilishda – **53,8** % ni, sanoatda – **53,8** % ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi xizmatda – **3,7** % ni, qurilishda – **2,6** % savdoda – **2,3** % ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023-yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	35,5	56,5	8,0
Band bo'lganlar soni	14,5	79,0	6,5
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	37,3	56,1	6,6
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	32,2	59,8	7,9
Raqobat muhiti	40,2	53,4	6,4

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	44,2	51,4	4,3
Band bo'lganlar soni	23,1	73,2	3,7
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	38,4	57,3	4,3
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	34,0	61,1	4,9
Raqobat muhiti	44,5	55,1	3,3


* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023-yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2023- yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



* Faqat raqobat muhitiga tegishli